

HUDUDIIY ADLIYA ORGANLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING TASHKILIIY-HUQUQIIY ASOSLARI: XORIJIY TAJRIBA

Mamaziyayev Xusniddin Dilshod o'g'li

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti

Ilmiy-innovatsion tadqiqotlarni muvofiqlashtirish bo'limi

Bosh mutaxassisi, Institut mustaqil izlanuvchisi

E-mail: djhusniddin28@gmail.com

ANNOTATSIYA: Mazkur tezisda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimidagi hududiy adliya organlari faoliyatini takomillashtirish masalasi xorijiy tajriba asosida tahlil qilinadi. Jumladan, Germaniya, Estoniya, Janubiy Koreya davlatlari misolida hududiy adliya tizimining tashkiliy-huquqiy asoslari, markaz va hududlar o'rtasidagi vakolatlar taqsimoti, raqamlashtirish darajasi, xizmat ko'rsatish formatlari va fuqarolarga yaqinlik siyosati o'rganiladi. Har bir mamlakat tajribasidan kelib chiqib, O'zbekiston sharoitida qo'llash mumkin bo'lgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Xususan, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, kadrlar salohiyatini oshirish, hududiy adliya bo'linmalari xizmatlarining qulayligi va shaffofligini kuchaytirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: adliya organlari, hududiy boshqaruv, Germaniya tajribasi, Estoniya raqamlashtirish, Koreya jinoyat adliyasi, huquqiy islohotlar, raqamli xizmatlar, kadrlar salohiyati, elektron boshqaruv.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimida hududiy adliya organlari faoliyatini takomillashtirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. So'nggi yillarda mamlakatimizda adliya organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalar kengayib, aholi huquqiy madaniyatini oshirish, davlat xizmatlarini ko'rsatish sifatini yaxshilash va huquqni qo'llash amaliyotini izchil yo'lga qo'yish kabi ustuvor yo'nalishlar belgilangan. Biroq, o'tkazilgan tahlillar hududiy bo'g'inda muayyan muammolar mavjudligini ko'rsatdi: xususan, tuman (shahar) darajasida adliya organlari tuzilmasining yo'qligi joylardagi huquqiy muammolarni chuqur o'rganish va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishga to'sqinlik qilgan. Shu bois 2018-yilda Prezident Farmoni bilan adliya organlari tizimida "respublika – viloyat – tuman (shahar)" uch pog'onali boshqaruv prinsipi joriy etilib, tuman (shahar) adliya bo'limlari tashkil etilgan. [1]

Ushbu maqolada hududiy adliya organlari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasi tahlil qilinadi. Germaniya, Estoniya, Janubiy Koreya va Rossiya misolida hududiy adliya organlari faoliyatini tashkil etish va rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asoslari ko'rib chiqiladi. Maqolada ilmiy tahlil asosida muammolar



aniqlanib, ularni hal etish bo'yicha takliflar ilgari suriladi va tegishli xulosalar chiqariladi.

Germaniya. Germaniya federativ davlat bo'lib, adliya tizimini boshqarish asosan shtatlar (federal subyektlar) darajasida amalga oshiriladi. Federal Adliya va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish vazirligi asosan qonunchilik tashabbuslari, huquqni muvofiqlashtirish va konstitutsiyaviy nazorat funksiyalarini bajaradi. Ya'ni, jinoyat, fuqarolik, savdo huquqi, protsessual qonunlar kabi asosiy yo'nalishlarda yagona siyosat yuritish va qonun loyihalarini tayyorlash federal vazirlik zimmasiga yuklatilgan. Biroq mahalliy sudlar, prokuratura va jazoni ijro etish muassasalarini bevosita boshqarish vakolati shtatlar hukumatlariga tegishli bo'lib, har bir shtat o'z adliya tizimiga ega. Germaniyada hududiy adliya organlari oddiy ijrochi bo'linma emas, balki to'laqonli boshqaruv subyekti hisoblanadi. Shu bilan birga, Germaniyada yagona huquqiy makon va yagona standartlarni saqlash maqsadida shtatlar o'rtasida yaqin hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Jumladan, har yili bahor va kuz oylarida Adliya vazirlari konferensiyasi (Justizministerkonferenz, JuMiKo) o'tkazilib, barcha federal yerlarning adliya boshliqlari yig'ilib, huquqiy siyosat masalalarini muvofiqlashtiradi. JuMiKo qarorlari bevosita majburiy kuchga ega bo'lmasa-da, ular orqali huquqiy islohotlar bo'yicha muhim tashabbuslar ilgari suriladi va Germaniya miqyosida innovatsion g'oyalarni amalga oshirishga turtki bo'lib xizmat qiladi. [2]

Germaniya tajribasiga qaraydigan bo'lsak, hududiy adliya organlari faoliyatini takomillashtirishda devolyutsiya va koordinatsiya tamoyillari muhim ekanini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni, vazifalarning bir qismi hududiy darajada hal etilishi bilan birga federal miqyosda rahbarlik va nazorat amalga oshirilishi zarur. Masalan, Germaniyada sudlar va prokuratura shtatlar tasarrufida bo'lsada, ularning faoliyatini samarali olib borish uchun qo'shma axborot tizimlari, raqamlashtirish loyihalari joriy qilinmoqda. Federal va mahalliy darajada idoralararo elektron hujjat almashinuvi yo'lga qo'yilgan, advokatlar uchun majburiy elektron pochta qutisi (beA) tizimi joriy etilib, 2022-yildan boshlab barcha advokatlar hujjatlarni faqat elektron shaklda topshirishi shart etib belgilangan.[3] Bundan tashqari, Onlayn murojaatlarni qabul qilish to'g'risidagi qonun (Onlinezugangsgesetz) talabiga binoan, 2022-yil oxirigacha federal, shtatlar va mahalliy darajadagi jami 575 ta davlat xizmati elektron portal orqali taqdim etilishi lozimligi belgilangan. Bu islohotlar adliya organlari ko'rsatadigan xizmatlarni (masalan, ma'lumotnomalar, registratsiya ishlari) fuqarolar uchun onlayn "yagona darcha" orqali olish imkonini bermoqda. Xulosa qilib aytganda, Germaniyada hududiy adliya organlari faoliyatini takomillashtirish konstitutsiyaviy vakolatlarni to'g'ri taqsimlash, mahalliy tashabbus erkinligi va markaziy muvofiqlashtirishni uyg'unlashtirish, shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish orqali amalga oshirilmoqda.

Germaniya tajribasi shuni ko'rsatadiki, hududiy adliya organlari faoliyatini takomillashtirish faqat vakolatlarni markazdan hududlarga berish bilangina emas,



balki ularni samarali muvofiqlashtirish, yagona standartlar asosida raqamlashtirish va hududiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash orqali amalga oshiriladi. Ushbu yondashuv O'zbekiston sharoitida ham adliya organlari faoliyatining samaradorligi va xizmatlar sifati oshishiga xizmat qilishi mumkin.

Estoniya. Estoniya unitar davlat bo'lib, aholisi va hududi kichik bo'lsada, adliya tizimidagi innovatsiyalar va raqamlashtirish bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Estoniya Adliya vazirligi Raqamli ishlar vazirligi bilan birlashtirilib, Adliya va raqamli rivojlanish vazirligi tashkil etilgan. Bu o'zgarish adliya sohasida raqamlashtirish siyosatini yanada kuchaytirishga, sudlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash va yangi qonunlarni ishlab chiqishda digital yechimlardan foydalanishga qaratilgan. Estoniya adliya tizimi tuzilmasida markazlashtirish elementi kuchli: vazirlik mamlakatdagi sudlarning boshqaruvi, prokuratura organlari, qamoqxona xizmati, patent idoralari, ma'lumotlarni himoya qilish inspeksiyasi, sud-tibbiy ekspertiza Markazi, registrlar hamda axborot tizimlari Markazi faoliyatini o'z ichiga oladi. Ya'ni, barcha asosiy huquqni muhofaza qilish va huquqiy xizmat ko'rsatish tizimlari yagona boshqaruvga integratsiya qilingan.

Estoniya hududiy adliya organlari tajribasining eng diqqatga sazovor jihati – raqamli davlat xizmatlarining joriy etilgani va aholiga qulay huquqiy sharoit yaratilganidir. Masalan, dunyoga mashhur e-Business Register (Elektron biznes registri) tizimi orqali yangi korxonani onlayn ro'yxatdan o'tkazish atigi bir necha daqiqa vaqt oladi. 2011-yildan buyon Estoniyada aksar yuridik shaxslar notariusga bormasdan, elektron ID-karta yoki mobil ID yordamida internet orqali ro'yxatdan o'tmoqda; natijada kompaniya ro'yxatdan o'tish vaqti 5 kundan bir necha soatgacha qisqardi.[4] Shuningdek, sudlar va huquqni muhofaza qilish organlari uchun yagona ma'lumot tizimlari ishlab chiqilgan. Fuqarolar ID-karta yordamida sud hujjatlari va qarorlarini davlat portalida ko'rishlari, jarimalarni to'lashlari yoki rasmiy hujjatlarni elektron imzo bilan tasdiqlashlari mumkin. Estoniya notariuslari ham onlayn xizmat ko'rsatishga o'tgan – masofaviy notarial tasdiqlash yo'lga qo'yilib, xorijdagi shaxslar ham videoaloqa orqali ba'zi hujjatlarni tasdiqlashlari mumkin.

Bundan tashqari, Estoniyada ochiq ma'lumotlar va jamoatchilik nazoratiga alohida e'tibor beriladi. Masalan, qonun hujjatlari, sud qarorlari, biznes reyestr ma'lumotlari ochiq internetda erkin va bepul taqdim etiladi, bu esa shaffoflikni ta'minlab, fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini oshiradi. Estoniya tajribasi shuni ko'rsatadiki, kichik davlat sharoitida ham hududiy adliya organlari faoliyatini yuqori samarali qilish uchun raqamli yechimlar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Hududiy darajada adliya xizmatlarini onlayn ko'rsatish, barcha registr va axborot bazalarini integratsiya qilish, shuningdek, Adliya vazirligining raqamli rivojlanish siyosati bilan uyg'unlashtirish orqali Estoniya tez, shaffof va qulay huquqiy xizmatlar tizimini barpo etgan.

Estoniya Adliya tizimining o'ziga xos jihatlaridan biri ko'pgina davlatlarda raqamlashtirish yordamchi vosita bo'lsa, Estoniyada u adliya siyosatining markaziy elementi hisoblanishidir. Adliya vazirligi sudlar, prokuratura, qamoqxona xizmati, registrlar, axborot tizimlari faoliyatini yagona raqamli ekotizim orqali boshqaradi. Bu holat huquqiy boshqaruvda institutsional tarqoqlikni bartaraf etadi. Yana bir o'ziga xos jihati hududiy adliya xizmatlarining to'liq onlayn formatga o'tishidir. Adliya xizmatlari hududiy darajada ham to'liq onlayn amalga oshiriladi. Mislo tariqasida e-Business Register orqali korxonani bir necha daqiqada ro'yxatdan o'tkazish, masofaviy notarial tasdiqlash (videoaloqa orqali) xizmatlarini aytishimiz mumkin. Bu hududiy adliya organlarini xizmat ko'rsatuvchi raqamli platformaga aylantirgan.

Shuningdek, "Raqamli ishonch" modeli mavjud bo'lib, ID-karta, mobil ID, elektron imzoga nafaqat texnologiya, balki huquqiy institut sifatida qaraladi. Fuqaro va davlat o'rtasidagi munosabatlar ishonchga asoslangan raqamli muhitda amalga oshadi.

Estoniya tajribasi O'zbekiston uchun quyidagi jihatlar bo'yicha muhim: hududiy adliya organlari uchun xizmatlarni to'liq onlayn ko'rsatish, registr va axborot tizimlarini integratsiya qilish; adliya siyosatini raqamli rivojlanish strategiyasi bilan uyg'unlashtirish; fuqarolarni adliya tizimining passiv subyekti emas, faol ishtirokchisiga aylantirish.

Estoniya tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlatning hududi va aholisi kichik bo'lishiga qaramay, adliya tizimini samarali tashkil etishda institutsional markazlashtirish va chuqur raqamlashtirish hal qiluvchi omil hisoblanadi. Adliya vazirligi va raqamli rivojlanish yo'nalishining yagona boshqaruvga birlashtirilishi sudlar, huquqni muhofaza qilish organlari, registrlar va davlat xizmatlari faoliyatini uzviy bog'lashga imkon beradi. Natijada Estoniyada adliya xizmatlari tezkor, shaffof va fuqarolar uchun maksimal darajada qulay shaklda yo'lga qo'yilgan.

Janubiy Koreya. Janubiy Koreya so'nggi yillarda huquqiy tizimni modernizatsiya qilish va davlat organlari o'rtasida vakolatlarni muvozanatlashtirish borasida katta islohotlarni amalga oshirmoqda. Koreya Respublikasi Adliya vazirligi tarkibida ilgari Prokuratura ham faoliyat ko'rsatib, prokurorlar ustidan nazorat vazirlikka tegishli edi. Biroq 2022–2023-yillarda davlat boshqaruvi islohotlari doirasida Markaziy Prokuratura organini tugatish va prokurorlarning tergov vazifalarini alohida yangi idoralarga ajratish bo'yicha qonunchilik qabul qilindi.[5] Ushbu qadam prokuratura tizimining ortiqcha vakolatlarini cheklab, tergov va ayblovlar funksiyalari o'rtasida muvozanatni ta'minlashga qaratilgan. Yangi islohotga muvofiq, jinoyat ishlarini tergov qilish bo'yicha mustaqil agentliklar tashkil etilib, prokurorlar endilikda faqat ayblovlar xulosasini tayyorlash vazifasini bajarishadi. Bu o'z navbatida hududiy darajada adliya organlarining – jumladan, politsiya, prokuratura va sudlarning o'zaro hamkorlikdagi faoliyatini qayta yo'lga qo'yishni talab etadi.

Koreya tajribasining eng e'tiborga molik jihati axborot texnologiyalarini jinoyat adliyasiga integratsiya qilganidir. 2010-yillardan boshlab bu mamlakatda Koreya



jinoyat adliya axborot tizimi (KICS) ishlab chiqilib, bosqichma-bosqich amaliyotga tatbiq etildi. KICS – bu politsiya, prokuratura, sudlar va jazoni ijro etish muassasalari o‘rtasida yagona elektron ma’lumot almashish platformasi bo‘lib, barcha jarayonlarni raqamli tarzda kuzatish imkonini beradi.[6] 2024-yil sentabr oyida esa Adliya vazirligi, Prokuratura, Milliy politsiya agentligi va Sohil xavfsizligi xizmati yangi avlod KICS tizimini ishga tushirganliklarini e’lon qilishdi. Next-Generation KICS deb atalgan ushbu tizim jinoyat protseduralarini to‘liq raqamlashtirish, onlayn va masofaviy xizmatlarni kengaytirish hamda eski axborot tizimlarini yangilash maqsadida ishlab chiqildi. Yangi tizim orqali fuqaro o‘zini identifikatsiya qilgan holda turli tergov idoralaridagi amalda bo‘lgan, yurituvdagi “o‘z ishi” haqidagi ma’lumotlarni onlayn ko‘rish mumkin bo‘ladi. Xususan, jinoyatdan jabrlangan shaxslar maxsus portal orqali o‘zlariga tegishli bo‘lgan ishni borishini kuzatishi, ko‘rilayotgan choralar haqida ma’lumot olishi va huquqiy yordam uchun qayerga murojaat qilishni bilishi mumkin. Tergov jarayonlarida esa masofaviy texnologiyalar joriy qilinmoqda. Endilikda jabrlanuvchilar va guvohlarni shaxsan hozir bo‘lmasdan, o‘z telefon yoki kompyuteri orqali videoaloqa yordamida so‘roq qilishlari mumkin. Eng qiziq jihati, KICS tizimiga sun’iy intellekt asosida ish yuritishni qo‘llab-quvvatlovchi modullar kiritilgan: masalan, AI dasturi jinoyatning tafsilotlari va kalit so‘zlarini tahlil qilib, shunga o‘xshash ishlar bo‘yicha sud qarorlari va hujjatlarni tizimdan topib beradi. Shuningdek, tergovchi va prokuror nutqini real vaqt rejimida matnga avtomatik o‘girib beruvchi ovozni tanib matnga aylantirish funksiyasi ham joriy etilmoqda. Mobil qurilmalar uchun maxsus ilova ishlab chiqilib, smartfon yoki planshet orqali ish hujjatlarini ko‘rish, sud jarayonlariga tayyorgarlik ko‘rish va ma’lumot izlash imkoniyatlari yaratilgan.[7]

Janubiy Koreya tajribasi hududiy adliya organlari faoliyatini takomillashtirishda zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish va institutsional muvozanatni saqlash naqadar muhimligini ko‘rsatadi. Bir tomondan, KICS kabi tizimlar orqali politsiya, prokuratura va sudlar o‘rtasida ma’lumot almashinuvi tezlashib, ish ko‘rish sifati oshgan. Fuqarolar va advokatlar uchun ham ish hujjatlariga masofadan murojaat qilish imkoniyati oshib, jarayonlarning shaffofligi ta’minlangan. Boshqa tomondan, prokuratura islohotlari orqali hududiy darajada adliya organlari o‘rtasidagi vakolatlar qayta taqsimlanib, haddan tashqari markazlashuvning oldi olinmoqda. Bu islohotlar natijasida Janubiy Koreyada adliya organlari faoliyati fuqarolar manfaatiga yanada yaqinlashmoqda va huquqni muhofaza qilish tizimiga jamoatchilik ishonchi ortmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hududiy adliya organlari faoliyatini takomillashtirish **huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda** muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda bu borada muhim islohotlar amalga oshirildi. Tuman adliya bo‘limlari tashkil etilib, joylarda aholiga yanada yaqinroq bo‘lishga erishildi. Biroq xorijiy davlatlar tajribasi, tahlili shuni ko‘rsatadiki, oldinda hal etilishi lozim bo‘lgan vazifalar hanuz

ko'p. Germaniya tajribasi orqali markaz va hududlar o'rtasida vakolatlarni oqilona taqsimlash va barcha darajalarda huquqiy siyosatni uyg'unlashtirish muhimligini ko'rishimiz mumkin. Estoniya tajribasi raqamlashtirish orqali kichik davlat ham ulkan yutuqlarga erisha olishini isbotladi. Estoniya va Janubiy Koreya adliya organlari faoliyatidan ko'rishimiz mumkinki adliya organlari faoliyatini takomillashtirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish eng samarali yo'l hisoblanadi. O'zbekistonda adliya organlari tomonidan ko'rsatiladigan davlat xizmatlarining bir qismi elektron platformaga o'tkazilgan bo'lsada (masalan, NNTlar ro'yxatdan o'tish, tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatga olish, my.gov.uz platformasi orqali davlat xizmatlarining ko'plab turlari kabi), hududiy darajadagi ko'plab jarayonlar hanz elektron tizimga tayanmaydi. Fuqarolar ayrim hujjatlar uchun viloyat markaziga borishga majbur bo'lmoqdalar. Masalan, ayrim litsenziyalar xizmati to'liq integratsiyalangan onlayn shaklga o'tkazilmagan, fuqarolik holati dalolatnomalari, ayrim arxiv ma'lumotnomalar, notarial harakatlar ko'pincha offlayn qatnashuvni talab qiladi.

Hududiy adliya organlari faoliyati samaradorligi ko'p jihatdan u yerda ishlovchi xodimlarning professionalligiga bog'liq. O'zbekistonda oxirgi yillarda adliya tizimida kadrlarni malakasini oshirish va qayta tayyorlash borasida qator islohotlar amalga oshirildi, shu jumladan, Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutida adliya organlari xodimlari uchun uzluksiz malaka oshirish kurslari yo'lga qo'yildi, xorijiy mamlakatlarda stajirovkalar tashkil etildi. Shunday bo'lsada hududiy bo'linmalarda malakali yuridik kadrlar yetishmovchiligi hanz seziladi, ayrim hollarda kadrlarning markazga intilishi tufayli joylarda salohiyatli mutaxassislarni ushlab qolish qiyin. Shu sababli hududiy adliya organlari xodimlarini rag'batlantirish tizimini takomillashtirish zarur. Xususan, viloyat va tuman adliya bo'limlari xodimlari uchun maxsus imtiyozlar (uy-joy bilan ta'minlash, xizmat uylari berish kabi), mehnatga haq to'lashda qo'shimcha koeffitsientlar joriy etish, ularning xizmat avtomobillari va texnik vositalar bilan ta'minlanishini yaxshilash lozim.

ИҚТИБОСЛАР / ЧОСКИ / REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PF-5415-son Farmoni (Toshkent shahri). 2-band. // <https://lex.uz/docs/-3681777>
2. Ministerium für Justiz und Verbraucherschutz des Landes Sachsen-Anhalt — Germaniyaning Saksoniya-Anxalt (Sachsen-Anhalt) shtatiga tegishli Adliya va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish vazirligining rasmiy sayti. <https://mj.sachsen-anhalt.de/themen/konferenzen/justizministerkonferenz#:~:text=Die%20Justizministerkonferenz%20,und%20rechtspolitischen%20Vorhaben%20der%20L%C3%A4nder>



3. Vende P., Piroutek K. Germaniyada raqamli sud jarayonlari bo'yicha CMS ekspert qo'llanmasi // Xalqaro ilmiy-amaliy tahliliy material. – 2023-yil 11-may. — <https://cms.law/en/int/expert-guides/cms-expert-guide-to-digital-litigation/germany>
4. e-Estonia – Estoniya davlatining rasmiy raqamli boshqaruv portali. // https://e-estonia.com/solutions/ease_of_doing_business/e-business-register/
5. The Korea Herald – Janubiy Koreyaning yetakchi milliy ingliz tilidagi ommaviy axborot vositasi sayti. // <https://www.koreaherald.com/article/10584638>
6. KOREA.net – Janubiy Koreya hukumatining rasmiy axborot portali. // <https://www.korea.net/Government/Current-Affairs/National-Affairs/view?affairId=521&subId=581&articleId=144845>
7. Maeil Business Newspaper — Janubiy Koreyada faoliyat yurituvchi yetakchi iqtisodiy va siyosiy gazeta hamda axborot portali. // <https://www.mk.co.kr/en/society/11120105>